

BOLALARDA AGRESSIYANI KAMAYTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Muallif: Tursunova Musharrafxon

Kukand unversiteti Andijon filiali

Psixologiya yo'nalishi 24/01 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, psixologik omillari hamda uni kamaytirishning samarali psixologik yo'llari tahlil qilinadi. Oilaviy muhit, tarbiya uslublari, ijtimoiy muhit va bolaning individual-psixologik xususiyatlarining agressiyaga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda agressiyani oldini olish va kamaytirishda psixologik yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Agressiya, agressiv xulq-atvor, bola psixologiyasi, emotsional rivojlanish, tarbiya, psixologik muhit, oilaviy tarbiya.

Asosiy qism: Psixologiyada agressiya tushunchasi shaxsning boshqa insonlarga, atrof-muhitga yoki o'ziga nisbatan zarar yetkazishga qaratilgan ongli yoki ongsiz harakatlari sifatida talqin etiladi. Agressiya faqat urish yoki jismoniy zo'ravonlik bilangina cheklanmaydi. U quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: Jismoniy agressiya (urish, itarish, buyum otish); Verbal agressiya (baqirish, haqoratlash, qo'pol so'zlash); Emotsional agressiya (g'azab, nafrat, hasad); Bilvosita agressiya (qasddan ranjitish, bepisandlik) Bolalarda agressiyani kamaytirishning psixologik yo'llari: Emotsional savodxonlikni rivojlantirish-bolaga o'z his-tuyg'ularini tanish va ifodalashni o'rgatish agressiyani sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan: "Men xafa bo'ldim"; "Men jahlim chiqdi" kabi iboralar agressiv harakat o'rnini bosadi. Mehr ko'rgan, tushunilgan bola o'zini himoya qilish uchun agressiyaga murojaat qilmaydi. Psixologlar mehr va rag'bat jazodan ko'ra samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. O'yin va art-terapiya usullari -o'yin terapiyasi, rasm chizish, ertak terapiyasi orqali bola ichki kechinmalarini ochib beradi. Bu usullar ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda samarali hisoblanadi. Agar ota-ona

yoki pedagog muammoni tinch yo‘l bilan hal qilsa, sabrli va muloyim bo‘lsa; bola ham shunday xulqni o‘zlashtiradi.

O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil qiladi. O‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O‘smirlik davrida o‘smirning “men”i qaytadan shakllanadi. Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyati yo‘nalishi keskin o‘zgaradi. Ularda ilgarigi qiziqishlar so‘nadi va yangi qiziqishlar paydo bo‘ladi. Bunda ish qobiliyatining, o‘zlashtirishning pasayishi, o‘smirlarning qo‘polligi va yuqori qo‘zg‘aluvchanligi, o‘zidan qoniqmasligi, agressiya, xavotirlanish kayfiyat beqarorligi, depressiv kechinmalar, tez ranjish, arziyas narsaga ham kuchli reaksiya bildirish, o‘zini past baholash kabi salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. O‘smirlik davrida bolalar hissiy jihatdan beqaror bo‘lib qoladilar. Psixologlar buni gormonal o‘sish, tanani qayta qurish, balog‘atga yetish kabi biologik omillar bilan bog‘laydi. Ammo ba‘zi hollarda hissiy o‘zgarishlar radikal shakllarga ega bo‘lib, agressiyaga aylanishi mumkin. Agar o‘smir o‘z agressiyasi bilan yolg‘iz qolsa, bu uni buzg‘unchi jamoalarga olib kirishi va natijada huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin. Oddiy kundalik hayotda agressiya – zo‘ravonlik yoki raqibni yengish uchun vosita sifatida qo‘llaniladi. Agressiya tushunchasining o‘ziga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug‘diradi, chunki bu termin ko‘plab xatti-harakat shakllarini o‘zida qamrab olgan. Odamlar biron-bir kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi, badfe‘l, barcha narsani o‘zi istaganidek qilishni istaydigan, o‘z g‘oyalarini qat‘iy himoya qiladigan, yechimi yo‘q muammolar girdobiga o‘zini giriftor qiladigan inson, deb ta‘riflashlari mumkin. Agressiyaga nisbatan berilgan bunday ta‘rif to‘g‘ri yo‘ noto‘g‘riligini bilish uchun bu tushunchaga oydinlik kiritish lozim. R.Beron va D.Richardson bu tushunchaga shunday ta‘rif beradi: “Agressiya lotin tilida “agressio” – hujum degan ma‘noni bildiradi, bu bir jonzotga zarar yetkazishga qaratilgan inson xulq-atvorining har xil formasi” J.Buss fikricha “Agressiya oqibatida boshqa organizm qandaydir zararli stimulni qabul etish reaksiyasi” N.Zilman tomonidan bildirilgan

fikrga ko'ra agressiya boshqalarga tanjarohati va jismoniy jarohatlar yetkazish demakdir. Agressiyaning namoyon bo'lishining ko'plab nazariy asoslari mavjud. Zigmund Freyd fikricha agressiv xulq o'z tabiati bo'yicha g'ayriixtiyoriy va muqarrar. Insonda ikkita birmuncha qudratli instinkt mavjud: jinsiy (libido) va o'limga bo'lgan qiziqish (tanatos). Agar tanatos quvvati sirtga yo'naltirilmasa, bu tezda individumning o'zini parchalashiga olib keladi. Shunday qilib, tanatos bilvosita tajovuzning tashqariga chiqishiga va boshqalarga yo'naltirilishiga ko'maklashadi. Hissiyotlarning tashqi ko'rinishi xavfli harakatlarning namoyon bo'lish ehtimolini kamaytirishi mumkin. K.Lorens agressiya barcha jonli mavjudotlar kabi insonda ham mavjud bo'lgan yashash uchun kurashning tug'ma instinktidan boshlanish nuqtasini oladi. U yashash uchun kurash instinktining manbayi bo'lmish agressiv quvvat organizmda to'satdan, doimiy tezlikda, vaqt o'tishi bilan muntazam yig'ilgancha yuzaga keladi deydi. O'smirlik davrida o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunday davrlar bo'ladiki, ularda agressiv fe'l-atvor eng yuqori yoki eng past ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. O'g'il bolalarda ikki tipdagi agressiyaning namoyon bo'lishi aniqlangan: 12 yosh va 14-15 yosh. Qizlarda ham ikki tipdagi agressiv xulq-atvorning eng yuqori ko'rsatkichlari 11 va 13 yoshga to'g'ri keladi [4]. O'g'il bolalar uchun agressiyani to'g'ridan to'g'ri, ochiq shaklda va nizoga kirishayotgan shaxsning o'ziga ko'rsatish xarakterlidir. Qizlarga esa aynan verbal agressiyaning turli ko'rinishlarini ma'qul deb bilish xarakterlidir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishi ko'plab psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillar bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayon hisoblanadi. Agressiya bolaning ichki ruhiy holati, emotsional ehtiyojlari va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatining natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun agressiv xatti-harakatlarni faqat tashqi intizom buzilishi sifatida baholash to'g'ri emas, balki uni bolaning ichki kechinmalarini ifodalash usuli sifatida qabul qilish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oiladagi nosog'lom psixologik muhit, otanonaning befarqligi yoki haddan tashqari qattiqqo'lligi, jismoniy va ruhiy jazolash usullarining qo'llanilishi bolalarda agressiyaning kuchayishiga olib keladi. Aksincha,

mehr, tushunish, qo'llab-quvvatlash va ijobiy muloqot ustuvor bo'lgan oilalarda ulg'aygan bolalarda agressiv xulq-atvor ancha kam uchraydi. Demak, agressiyani kamaytirishda eng avvalo oilaviy tarbiya tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ijtimoiy muhit va axborot vositalarining ta'siri ham bolalar agressiyasining kuchayishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi multfilmlar, kompyuter o'yinlari va salbiy tengdoshlar muhiti bolaning ongida agressiv xatti-harakatlarni me'yor sifatida qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, bolalarning axborot maydonini nazorat qilish, ularni ijobiy faoliyatga yo'naltirish agressiyani oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Agressiyani kamaytirishda jazolash usullaridan ko'ra psixologik yondashuvlar samaraliroq ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Emotsional savodxonlikni rivojlantirish, bolaga o'z his-tuyg'ularini to'g'ri anglash va ifodalashni o'rgatish, o'yin va art-terapiya usullaridan foydalanish agressiv holatlarni yumshatishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda kattalarning shaxsiy namunasi, sabr-toqati va muloyim munosabati bolaning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bolalarda agressiyani kamaytirish faqatgina psixolog yoki pedagogning vazifasi emas, balki oila, ta'lim muassasasi va jamiyatning hamkorlikdagi mas'uliyatidir. Har bir bolaga individual yondashish, uning ichki dunyosini tushunishga intilish va ijobiy psixologik muhit yaratish orqali sog'lom, muvozanatli va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Bowlby J. Attachment and Loss. — London: Penguin Books, 1988.
3. Nemov R.S. Psixologiya. — Moskva: Vldos, 2003.
4. Karimova V.M. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
5. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2014.
6. Nishonova Z.T., Kamilova N.G', Abdullayeva D.U., Xolinazarova M.X. «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» -Toshkent: 2017, 241-b

7.N.Ismoilova, D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” -TOSHKENT: 2013, 130-b